



NEMIS TILIDA PRETERIT ZAMON SHAKLINING ASPEKTUAL MA'NOLARINING O'ZBEK TILIDA IFODALANISHI

Ishankulova Nilufar Tashkentovna

*Qarshi davlat texnika Universiteti xorijiy tillar
kafedrasida katta o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqola nemis preterit zamonining o'zbek tiliga tarjima qilinishidagi grammatik va semantik tafovutlarni o'rganishga qaratilgan. Xususan, nemis tilidagi preterit shaklining o'zbek tilidagi sodda o'tgan zamon (-di), davomli o'tgan zamon (-ayotgan edi) va takrorlanuvchi harakatni bildiruvchi (-ar edi) shakllari bilan bog'liqligi tahlil qilinadi. Maqola davomida preterit zamonining nemis tilidagi vazifalari, uning ingliz va o'zbek tillariga taqqoslanishi, shuningdek, tarjimada uchraydigan muammolar muhokama qilinadi. Ular orasidagi tafovutlar ko'rsatilib preterit zamon va perfect zamoni ham o'zaro taqqoslanib, ularni qanday tarjima qilsa muvofiq bo'lishi to'g'risida gap yuritiladi.

Kalit so'zlar: aspektual ma'no, semantik tafovutlar, Preterit (Präteritum) zamoni, Perfekt (Perfekt) zamoni, xronika, modal fe'llar.

Kirish

Til tizimi turli shakl va grammatik qonunlardan iborat bo'lib, u har bir tilde o'z qonuniyatlariga ega bo'lib ba'zida tarjima jarayonida bu qonunlar turli til oilalari uchun o'xshashlik va noo'xshashliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Nemis tilida o'tgan zamonning asosiy shakllaridan biri preterit bo'lib, u yozma nutqda keng qo'llanadi. O'zbek tilida esa o'tgan zamonning turli shakllari mavjud bo'lib, ular preteritning ma'no jihatdan muqobili sifatida ishlatilishi mumkin. Shu sababli, nemis preteriti va uning o'zbek tilidagi aspektual ifodalari o'rtasidagi farqlar va o'xshashliklarni tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Mavzuning dolzarbligi shundaki, nemis tilini o'rganayotgan yoki tarjima bilan shug'ullanayotganlar preteritning o'zbek tiliga qanday to'g'ri tarjima qilinishi bilan bog'liq qiyinchiliklarga duch kelishadi. Shu sababli, ushbu maqolada nemis preteriti va uning o'zbek tilidagi ekvivalentlari haqida batafsil tahlil beriladi.

Preterit zamoni haqida umumiy ma'lumotga keladigan bo'lsak, nemis tilida o'tgan zamon ikki asosiy grammatik kategoriya bilan ifodalanadi: Preterit (Präteritum) va Perfekt (Perfekt). Ushbu ikkala zamon ham o'tgan voqealar yoki harakatlarni ifodalash uchun ishlatiladi, biroq ularning qo'llanilish sohasi va grammatik tuzilishi farq qiladi, shu bilan birga bu ikki zamon tushunchasi turli xil makon va zamoni ham anglatadi. Natijada ikkalasi orasida tarjima qilish jarayoni uchun biroz qiyinchiliklar kelib chiqishi tabiiy va o'zbek tilida o'tgan zamoni ifodalash uchun –di, -adi, -ardi kabi shakllar bor bo'lib, lekin ular umumiy o'tgan zamon deb ataladi. Nemis tilida Preterit (Präteritum) va Perfekt (Perfekt) zamonlari alohida zamon deb e'tirof e'tiladi va ma'no tushchalariga ko'ra farqini ko'ramiz.

- Preterit zamoni – bu nemis tilidagi oddiy o'tgan zamon bo'lib, asosan yozma yoki adabiy nutqda uchraydi. Rasmiy matnlar, tarixiy hujjatlar, hikoyalar va badiiy adabiyotlarda ko'p ishlatiladi. Shuningdek, u ba'zi yordamchi fe'llar bilan (sein – "bo'lmoq", haben – "ega bo'lmoq", modal fe'llar) og'zaki nutqda ham uchrashi mumkin.



- Perfekt zamoni esa asosan og'zaki nutqda ishlatiladi va yordamchi fe'llar (haben yoki sein) hamda fe'ning Partizip II shakli orqali hosil qilinadi.

Masalan:

- Ich las ein Buch. (Men kitob o'qidim.) – Preterit
- Ich habe ein Buch gelesen. (Men kitob o'qidim.) – Perfekt

Shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, preterit zamoni ayniqsa rasskazlar, tarixiy matnlar va yangiliklar maqolalarida keng qo'llanadi. Masalan, nemis gazetalarida tarixiy voqealar haqida yozilganda yoki badiiy adabiyotlarda hikoya qilinganda preterit ishlatiladi:

"Goethe im Jahre 1775 reiste nach Weimar."

("Gyote 1775-yilda Veymar shahriga sayohat qildi.")

1. Preterit = Sodda o'tgan zamon (-di shakli)

Bu holatda harakat tugallangan bo'ladi:

Ich ging nach Hause. → Men uyga ketdim.

Er schrieb einen Brief. → U xat yozdi.

Sie las ein Buch. → U kitob o'qidi.

2. Preterit = Davomli o'tgan zamon (-ayotgan edi, -ar edi shakli)

Agar harakat uzoq davom etgan yoki odatiy bo'lgan bo'lsa:

Ich war müde. → Men charchagan edim.

Er hatte ein Auto. → Uning mashinasi bor edi.

Wir lasen ein Buch. → Biz kitob o'qiyotgan edik.

Agar harakat aniq tugagan bo'lsa, -di shakli ishlatiladi.

Agar harakat davom etgan yoki odatiy bo'lsa, -ayotgan edi / -ar edi shakli ishlatiladi.

Preterit va Perfekt o'rtasidagi asosiy farqlarga to'xtalsak:

Shunday qilib, nemis tilida preterit zamoni yozma matnlarda muhim o'rin tutadi va uning tarjimasini o'zbek tilidagi o'tgan zamon shakllari bilan qanday bog'lanishini aniqlash muhim vazifalardan biridir.

Metodologiya

Preterit zamonini o'zbek tiliga tarjima qilishda ma'no aniqligini saqlash uchun harakatning davomiyligi va natijaviyligini to'g'ri ifodalash muhimdir. Quyida samarali tarjima qilish uchun qo'llaniladigan asosiy metodlar keltiriladi:

1. Kontekstga asoslangan tarjima metodi:

Preterit zamoni tarjima qilinayotganda, matnning umumiy kontekstini hisobga olish kerak, buning sababi shuki, bir xil grammatik tuzilma turli vaziyatlarda har xil tarjima qilinishi mumkin. Agar matn tarixiy yoki badiiy kontekstda bo'lsa, sodda o'tgan zamon (-di) ishlatiladi va natijaviylik muhim bo'lsa, -gan shakli mos kelishi mumkin.

2. Harakatning aspektini to'g'ri tanlash metodi:

Nemis preteriti harakatning uzoq davom etganligi, tugallanganligi yoki odatiy takrorlanganligi haqida ma'lumot berishi mumkin. Shuning uchun tarjimada mos aspekt tanlanishi lozim.



Uzoq davom etgan harakatlar uchun -ar edi ishlatiladi.

Qisqa yoki aniq bir vaqtda bo'lib o'tgan harakatlar uchun sodda o'tgan zamon (-di) ishlatiladi.

3. Modal fe'llarni aniq tarjima qilish metodi:

Modal fe'llarning preterit shakllari tarjima qilinganda, ularning zaruriyat, ruxsat, imkoniyat yoki majburiyat kabi ma'nolarini saqlab qolish kerak. Bu holatdagi metod:

- müssen → kerak edi
- können → qila olardi
- dürfen → mumkin edi
- sollen → kerak edi (birovning tavsiyasi)

4. Og'zaki va yozma nutqdagi tafovutni hisobga olish metodi:

Nemis tilida preterit asosan yozma nutq uchun xos bo'lsa, perfekt esa og'zaki nutq uchun ishlatiladi. O'zbek tilida esa bu farq mavjud emas, shuning uchun tarjimada mos nutq uslubi tanlanishi kerak.

Tarjimada matn uslubiga mos keladigan o'tgan zamon shaklini tanlash kerak.

Rasman yozma nutqda ishlatiladigan preteritni o'zbek tilida perfektga yaqinroq shaklda berish samarali bo'lishi mumkin.

5. Qo'shimcha so'z va iboralar bilan aniqlik kiritish metodi:

Ba'zi hollarda preterit tarjimasida harakatning davomiyligi yoki takroriyligini aniq ifodalash uchun qo'shimcha so'zlar ishlatiladi.

“Oft, immer, früher, lange” kabi so'zlar tarjimada ham aks ettirilishi kerak.

Zarurat tug'ilsa, qo'shimcha izoh berish mumkin.

Shunday qilib, preterit zamonining tarjimasida matn kontekstiga, harakatning davomiyligiga va nutq uslubiga bog'liq.

Natija

Nemis tilidagi preterit zamonining o'zbek tiliga tarjima qilinishida harakatning aspektual ma'nosi e'tiborga olinishi kerak, sababi harakatning qay holda sodir bo'lgani – tugallanganligi, davomiyligi yoki takrorlanuvchanligi – o'zbek tilida turli grammatik shakllar orqali ifodalanadi.

1. Preteritning sodda o'tgan zamon (-di) bilan tarjima qilinishi:

Agar preteritdagi harakat yakunlangan va aniq vaqt davomida sodir bo'lgan bo'lsa, u o'zbek tilida sodda o'tgan zamon (-di) bilan ifodalanadi:

- Ich schrieb einen Brief. → Men xat yozdim.
- Er las ein Buch. → U kitob o'qidi.

Bu tarjima usuli, ayniqsa, tarixiy matnlar, hikoyalar va xronikalarda uchraydigan preterit shakllari uchun juda mos keladi.

2. Preteritning davomiy o'tgan zamon (-ayotgan edi) bilan tarjima qilinishi:

Agar preteritdagi harakat uzoq davom etgan yoki ma'lum bir vaqt mobaynida bo'lib o'tgan bo'lsa, u o'zbek tilida “-ayotgan edi” shakli bilan tarjima qilinishi mumkin:

- Ich war müde. → Men charchagan edim.



➤ Er arbeitete den ganzen Tag. → U butun kun ishlayotgan edi.

3. Preteritning odatiy harakat (-ar edi) bilan tarjima qilinishi:

Agar preteritdagi harakat o'tgan zamonda doimiy holatda takrorlanib turgan bo'lsa, u o'zbek tilida "-ar edi" shakli bilan ifodalanishi ham mumkin:

➤ Jeden Tag ging er zur Schule. → U har kuni maktabga borardi.

➤ Ich spielte oft Fußball. → Men tez-tez futbol o'ynardim.

Bu holat ko'proq o'tgan zamondagi odatiy yoki takrorlanuvchi holatlar uchun ishlatiladi.

Nemis preteriti o'zbek tiliga tarjima qilinayotganda harakatning davomiyligi va ma'nosiga qarab sodda o'tgan zamon (-di), davomli o'tgan zamon (-ayotgan edi) yoki odatiy harakat (-ar edi) shakllari tanlanadi.

Nemis preterit zamonini o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida ba'zi muammolar yuzaga keladi, sababi har ikki tilning grammatik tizimi va o'tgan zamonni ifodalash usullari bir-biridan keskin farq qiladi. Quyida tarjimada uchraydigan asosiy qiyinchiliklar va ularni hal qilish yo'llari ko'rib chiqiladi.

Preterit va perfekt o'rtasidagi tafovutni tushunish qiyinligi:

Nemis tilida preterit va perfekt zamonlari ba'zan bir xil ma'noda ishlatiladi, ammo o'zbek tilida bunday farqlanishning iloji yo'q. Shuning uchun tarjimon matn kontekstiga qarab qaysi zamon shaklini ishlatish kerakligini tarjimon mahorati orqali aniqlashi lozim.

Muhokama

1. Endi muamolarni muhokamasiga to'xtalsak:

➤ Ich las ein Buch. → Bu gap preterit,

➤ Ikin Ich habe ein Buch gelesen.

ham xuddi shunday ma'noni anglatadi.

Yechim sifatida:

Agar gap rasmiy yozma nutq yoki hikoya bo'lsa, preterit sodda o'tgan zamon (-di) shaklida tarjima qilinadi:

"Men kitob o'qidim."

Agar harakat og'zaki nutqda yoki kundalik muloqotda aytilayotgan bo'lsa, perfekt shakli bilan ifodalangan gap o'zbek tilida ham o'tgan zamon bilan beriladi.

2. Preterite modal fe'llar bilan ishlatilishiga e'tibor qaratsak:

Nemis tilida modal fe'llarning preterit shakli keng qo'llaniladi, biroq o'zbek tilida bunday fe'llarni aniq tarjima qilish usuli muamoli bo'lishi mumkin:

➤ Ich musste arbeiten. → Men ishlashim kerak edi.

➤ Er konnte schwimmen. → U suza olardi.

Yechimga kelsak:

Modal fe'llar preteritda ishlatilganda, ularni -ish kerak edi / -ar edi shakllari bilan ifodalash mumkin.

Zaruriyat bildiruvchi "müssen" modal fe'li kerak edi bilan, imkoniyat bildiruvchi ko'makchi modal fe'li esa "olar edi yoki qila olardi" deb tarjima qilinadi.



3. Preterit ba'zi fe'llar bilan og'zaki nutqda ham ishlatilishidagi muammo:

Garchi preterit zamoni asosan yozma nutqga xos bo'lsa-da, "sein" (bo'lmoq), "haben" (ega bo'lmoq), "wissen" (bilmoq), modal fe'llar kabi so'zlar preterit shaklida og'zaki nutqda ham ishlatiladi.

- Er war glücklich. → U baxtli edi.
- Wir hatten keine Zeit. → Bizning vaqtimiz yo'q edi.

4. Tarjimada harakatning davomiyligini aniq ifodalash:

Preteritdagi harakat qisqa muddatli yoki uzoq davom etuvchi bo'lishi mumkin, lekin o'zbek tilida bu noaniq bo'lib qolishi mumkin:

Er lebte in Deutschland.

U Germaniyada yashadi. (Aniq muddat yo'q, noaniq ma'no).

U Germaniyada yashardi. (Uzoq muddat davom etganligini bildiradi).

Yechim sifatida esa:

Agar harakat uzoq davom etgan bo'lsa, -ar edi shaklini ishlatish lozim.

Agar harakat aniq tugagan bo'lsa, sodda o'tgan zamon (-di) qo'llaniladi.

Umuman olganda, ushbu metodlarni qo'llagan holda hind-yevropa tillariga kiruvchi Nemis tili grammatik qonunlari turkiy tillar oilasiga kiruvchi O'zbek tili qonunlariga tarjima qilish jarayonini osonlashtirish va o'quvchiga buni to'g'ri yetkaza olish juda muhim ahamiyat kasb etib yuqorida keltirilgan kontextga ahamiyat qaratish, tarjimadagi harakat davomiyligi kabi metodlarni chuqur o'rganib tatbiq qilinishi lozim. Eng samarali usul sifatida kontextuallikni e'tirof etish muki, sababi bu o'quvchining makon va zamon tushunchasida chalkashliklar sodir qilmasligi uchun muhim.

Xulosa

Xulosa o'rnida, ushbu maqolada nemis tilidagi preterit zamonining o'zbek tiliga tarjima qilinishidagi aspektual ma'nolar tahlil qilindi va Preteritning sodda o'tgan zamon (-di), davomli o'tgan zamon (-ayotgan edi) va odatiy harakat (-ar edi) shakllari bilan bog'liqligi ko'rsatildi. Tarjimada kontekst, harakat davomiyligi va uslubiy farqlar inobatga olinishi zarur.

Taklif sifatida, nemis preterit zamonini tarjima qilishda avtomatlashtirilgan tarjima tizimlari uchun maxsus qoida va algoritmlar ishlab chiqish tavsiya etiladi. Bundan tashqari, tarjimonlar uchun amaliy qo'llanmalar yaratish, nemis va o'zbek tillari grammatikasini qiyosiy tahlil qiluvchi ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish muhim. Preteritning tarjimada to'g'ri qo'llanilishi tarjimonlarning til bilimni chuqurlashtirishga ham xizmat qiladi va hamma uchun tarjima sifatini saqlab qolishi muhimdir. Umumiy tavsiyalar sifatida: Kontekstga e'tibor berish kerak – Preteritni tarjima qilayotganda matnning umumiy ma'nosini hisobga olish muhim. Harakatning davomiyligini hisobga olish kerak – O'zbek tilida harakatning davomiyligini aniq ifodalash uchun -ar edi yoki -ayotgan edi shakllaridan foydalanish mumkin. Nutq uslubiga mos tarjima tanlash kerak – Tarjima yozma yoki og'zaki nutq ekanligiga qarab preteritni o'tgan zamon yoki natijaviylik bildiruvchi shakllar bilan ifodalash kerak. Modal fe'llarni to'g'ri tarjima qilish kerak – Majburiyat va imkoniyatni aniq ifodalash uchun kerak edi, qila olardi, mumkin edi kabi shakllarni ishlatish lozim.

Preterit tarjimasining asosiy muammolari va ularni hal qilish yo'llari ko'rib chiqildi. Ushbu bilimlar tarjimonlarga nemis matnlarini o'zbek tiliga to'g'ri va tabiiy shaklda o'girishda yordam beradi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Imyaminova, S.S. (2021). Problem Of Choosing Words In Translation Process. The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research.
2. SALOXIDDINOV, M. (2024). tugallanganlikning grammatik ko 'rsatkichlari. News of the NUUZ, 1(1.4), 348-351.
3. Rizaev, B. X. aspektologiyaga tegishli ayrim tadqiqotlarning qisqa tahlili.
4. KIRISH, R. G. F. O'quv-Uslubiy Majmua.
5. Abney, S. P. (1987). The English noun phrase in its sentential aspect (Doctoral dissertation, Massachusetts Institute of Technology).
6. Rathert, M. (2008). Simple preterit and composite perfect tense: The role of the adjectival passive. In *Passivization and Typology: Form and function* (pp. 518-543). John Benjamins Publishing Company.
7. Kortlandt, F. H. (1989). The Germanic weak preterit.
8. Janssen, T. A. (1994). Preterit and perfect in Dutch. *Tense and aspects in discourse*, 115-146.
9. Mellmann, K. (2019). On the Origin of the Epic Preterit. *Journal of Literary Theory*, 13(2), 206-226.
10. Söhrman, I. (2013). Reference, aspectuality and modality in ante-preterit (pluperfect) in Romance languages. In *Diachronic and typological perspectives on verbs* (pp. 173-210). John Benjamins Publishing Company.
11. Bücking, S. (2022). Narration Without Narrating: The Role of Imagination and the Grammar of the Epic Preterit. *Zeitschrift für Literaturwissenschaft und Linguistik*, 52(1), 35-64.
12. Collitz, H. (1888). The Origin of the Teutonic Weak Preterit. *Transactions and Proceedings of the Modern Language Association of America*, 3(1), 196-209.
13. Abbott, O. L. (1957). The preterit and past participle of strong verbs in seventeenth-century American English. *American Speech*, 32(1), 31-42.
14. Rathert, M. Simple preterit and composite perfect tense. *Passivization and Typology*.
15. Baker, J. L., & Quesada, M. L. (2011). The effect of temporal adverbials in the selection of preterit and imperfect by learners of Spanish L2. In *Selected proceedings of the 2009 second language research forum* (pp. 1-15). Somerville, MA: Cascadilla Proceedings Project.